

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DARYOLARI YER OSTI VA YER USTI SUVLARI,
KO‘LLARI VA KELAJAKDAGI SUV MUAMMOSINI BARTARAF ETISH YO‘LLARI**

Ermo'minov Bo'ri Norqo'chqor o'g'li

Qarshi Davlat Universiteti

Geografiya va agronomiya fakulteti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari

3-kurs -02099 guruh talabasi

Nishon Tumani 21-maktab Geografiya va Iqtisod Fani O'qituvchisi.

Ermuminov Ro'zali Norquchqor o'g'li

Geografiya Sirtqi ta'lim yo'nalishi 3-kurs 02063-guruh talabasi

Jabborov Solijon Ergash o'g'li.

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti 1-kurs talabasi

Annotasiya: *O'zbekiston respublikasida Amudaryo, Sirdaryo, Qashqadaryo, Zarafshon daryosi, Surxondaryo va boshqa Daryolarining tutgan o'zni va ahamiyati.Yer osti va yer usti suvlarining Qishloq xo'jaligi sanoat va aholi uchun ahamiyati, orol dengizining qurishi va global muammoga aylanishi xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Qashqadaryo, Surxondaryo, Chirchiq va Ohangaron daryosi, havza, suvarg'ich, oqimlar, iqlim, relyef, ob havo, harorat, artezyen suvlari, gurunt Suvlari.*

KIRISH


O'zbekiston respublikasining Ichki suvlariga Daryolari,ko'llari, yer osti va yer usti suvlari, muzliklardagi suvlari, suv omborlari, suv havzalari, katta kanallari va ariqlardagi,zovur suvlarini, atmosferaning namligi va boshqalar kiradi.

ASOSIY QISM

Ichki suvlari faqat jumhuriyat iqlim xususiyatlari emas, boshqa unsurlari xususan relyefga ham bog'liqdir.Tog'yonbag'irining ko'p miqdorida tik bo'lganligi sababli ham yog'gan yomg'ir va erigan Qor va muz suvlari tezda pastga tushib,soy va Daryolarni hosil qiladi.Daryolar asosan tog'li hududlardan boshladi. Tekislikda chiqqach,sug'orishga sarflanib, yerga shimilib bug'lanib, suvi kamayib cho'llarda singib ketadi.Hudud bo'yicha Daryolarni zichligi km kv har xil. Har km kv maydonda Daryoning 20-22 metr uzunlikdagi qismi to'g'ri keladi.Tog' va adirlarda daryolarning tarmog'i zich.Bunga asosiy sabab, to'g'larga haroratnig, pastligi,Tekislikga nisbatan

ko'proq yomg'irlar tushadi. O'zbekiston respublikasi daryolar to'yinish tipi i 4-guruhga bo'lunadi.

- 1.Muzlik-qor suvlaridan to'yunadigan daryolar
- 2.Qor-muzlik suvlaridan to'yunadigan daryolar
- 3.Qor suvlaridan to'yunadigan daryolar
- 4.Qor yomg'ir suvlaridan to'yunadigan daryolar



1-rasm tog'li hudud daryolari

T/R	Daryolar nomi	Uzunligi (Km)	Manbayi	Mansabi	Suv asi (ming)
1	Amudaryo	2540	Pomir tog'lari liklardan	Orol giziga	465
2	Sirdaryo	3019	Markaziy shan tog'lari ov muzliklardan	Orol giziga yetib haydi	219
3	Surxondaryo	196	Hisor tog'lari	Amudaryoga qo'shuladi	-
4	Qashqadaryo	332	Hisor asining g'arbiy ida joylashgan osh oni.3000 metr.	Muborak ani yaqinida 20 qolgan da larda shimilib di	8750
5	Zarafshon	877	Turkiston va fshon tog' lari hgan ko'ksuv tugunidan.	Amudaryoga m yetmasdan iqni qumli lariga singib di	12374

6	Chirchiq	397	G'arbiy shan	Sirdaryo	13240
7	Ohangaron	236	Oqtoshsoy	Sirdaryo	7710

2-dayolarning jadvalda ko'runishi

Ko'llar hududimizda 5360 ta bulub, 56,5 % tekislik qismida 43, 5 % tog' oralig'idagi va tog'li hududlarda joylashgan. O'zbekiston. Hududdida tektonik yo'l bilan vujudga kelgan ko'l bu orol dengizidir. suv sathi 53,4 metr , maydoni 66,1 ming kv km o'rtacha chuqurligi 16,1, eng chuqur joyi 69-metr edi eng uzun yeri 493 km, eng keng joyi 292 km o'rtacha sho'rligi 10-11%, 1042km³. Lekin hozir bu kunda bunday Suv mavjud emas.



2-rasm orol dengiziga qolub ketgan kema ko'runishi



3-rasm orol dengizining hozirgi kunda ko'runishi

T/R	Asosiy Ko'llari	Zovur
-----	-----------------	-------

		Ko'llari
1	Orol	Sariqamish
2	Arnasoy	Aydar
3	Aydar	Arnasoy
4	Tuzkond, dengiz ko'l,samon ko'l sho'rko'l,Qoraqir,	Dengiz ko'l Qoraqir

2-jadval Respublikasidagi ko'llar

Amudaryo-eng sersuv daryo pomir tog'idan oqub o'tuvchi panj va vaxsh daryolarining qo'shilishidan vujudga keladi. Uzunligi 2540 km havzasining maydoni 309 ming km kv. Amudaryoning chap sohilidagi irmog'i Afg'oniston Respublikasining Qunduz daryosi qo'shuladi. O'ng irmog'i Kofirnihon va Surxondaryo daryosini qo'shub oladi. Turkmaniston respublikasi Amudaryo daryosidan Qoraqum kanali orqali uzunligi 1500 km,Amu-Qarshi magistral kanalining uzunligi 200 km, 162 metr balandlikka 6-ta nasos stansiyalari orqali Amudaryo suvini ko'tarilib beriladi.Amu-Buxoro magistral kanalining uzunlig 268 km asosiy suvdan sug'orishga va To'dako'l va Quyi mazor suv omborlarini ham to'ldirib turadi. Bundan tashqari Amu-Qorakul Kanali, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida ko'plab kanalar qurilgan.Hozirgi kunda Avg'oniston Respublikasida ham yangi kanal qazish ishlari davom etmoqda.

Sirdaryo-daryosi eng uzun daryo markaziy Tyanshan tog'lari(Petrov) dan boshlanuvchi Norin daryosi sirdaryoning manbayidir.Norin Daryosi Namangan shahari yaqinida Farg'ona va Oloy tizmalaridan boshlanuvchi Qoradaryo bilan qo'shiladi.

Chirchiq daryosi,Talas olatovi, Chotqol, piskom, qorjontom,ugom tog'laridan suv oladi. Chirchiq daryosi suvini 100 % desak,55-% chatolda, 36 % piskom,9 % uvom va boshqa irmoqlariga tug'ri keladi.

Norin daryosining uzunligi 578 km bo'lib,Qor va muz suvlaridan to'yunadi.uning o'rtacha yillik suv sarfi Uchqo'rg'on Yaqinida $s/423m^3$ suv sarfining 80 % mart va sentyabr oyilariga to'g'ri keladi.

Qoradaryo Farg'ona va Oloy tizmalaridan boshlanuvchi Tor va Qora G'ulja Daryolarining qo'shilishidan vujudga keladi.Baliqchi Qishlog'ida Norin bilan tutashadi. uzunligi 180-km bo'lib Qor va muz suvlaridan to'yunadigan daryo hisoblanadi.

Qashqadaryo Hisor tog'larining Tog'tosh dovoni yaqinidan boshlanib.muborakda yetmasdan qurib qoladi.

Suvning	Sunniy	Sunniy
---------	--------	--------

ifloslanishi	ifloslanish	ifloslanish
Tabiiy ifloslanishi	Metallurgiya sanoati	Kimyo sanoati
Kosmik changlar	Mashinasozlik sanoati	Neft mahsulotlari
Shamol dovul va Qumlar	Yoqilg'i sanoati	Kimyoviy o'g'itlar va pestesitlar
Yog'in va sel	Energetika sanoati	Yengil sanoat
O'simliklar chirishi	Tog' kon sanoati	Og'ir sanoat
Hayvonot dunyosi chirishi	Mashinasozlik texnik yordam ko'rsatish korxonalarini	Qurulish va materiallar ishlab chiqarish sanoati
Daryolar suvidan qumllanishi	Avtomobil sanoati	Zovur suvlari
qisman Antropogen	Boshqa sohalar	Boshqa sohalar

3-jadval suvning ifloslanishi

Yer osti suvlari umumiy suv resurslarini bir qismi sifatida xalq xujaligi va qishloq xo'jaligi katta ahamiyatga ega. Bu suv resurslaridan ota-bobolarimiz qadimdan foydalanib kelingan malumotlarga ko'ra o'zbekistonda yer osti suvlarining dinamik zaxirasini sekundiga 1038,1 m³ ni tashkil etadi. Suv har xil Geografik joylashuvi, Geologiyasi, relyefi, iqlim, tabiatiga bog'liq. O'zbekiston respublikasi hududida yer osti suvlari turlicha joylashgan gurunt suvlari, mineral issiq suv, qatlamlar orasidagi suvlar.

1. Gurunt suvlari to'planishi tog'larning 1500 metrdan 3000 metr balandlikka to'g'ri keladi. chunki balandlikka eng ko'p yog'in tushadi. Har bir kvadrat maydonga sekundiga 3-letrdan 12-litrgacha. O'zbekiston respublikasining tog'li hududlarda bir sekunda vujudga kelgan 105 m³ yer osti suvlari 100 % desak 31 % Toshkent oldi, 23,8 % Surxondaryo 13,5 % Qashqadaryo viloyati, 11,6 % Zarafshon 6,7 % Nurota va Turkiston, 5,25 % Mirzacho'l, 1,5,9% Farg'ona, 2 % ga yaqini markaziy Qizilqum Hidrogeologik mintaqasida tug'ri keladi.

2. Artziyan suvlar qatlamlar orasidagi suvlar ikkita suv o'tkazmaydaigan qatlamlar orasida joylashgan suv, bazan bu suvlarni artezyen suvlar dep ham ataladi. Artezyen suvlari sifati va chuqurligi har xil.

3.mineralashgan termal suvlar, ancha chuqurda joylashgan bo'lib 1500-3500-4500 metr gacha boradi. Bu suvlarni harorati 40-70*c gacha boradi. Tarkibida har xil mineral tuzlar erigan holatda uchraydi. Suv tarkibida vodorod sulfid,yod, litiy, natriy xlorid, Bariy, va boshqa turdagi tuzlar erigan holatda uchraydi. Shuning uchun ham xalq tilida shifobaxsh buloqlar deyiladi bunday buloqlar viloyatlar kesimida 100-dan ortiq. Ularning eng muhumlari Vodorod sulfitli Servodorotli shifobaxsh suvlardir.(Chimyon Povontosh Xonobod,shórsuv, shimoliy sux, Andijon, lalmikor,uchqizil va boshqalar). Yodli suvlaridan (Chortoq, Namangan) va boshqalar.

XULOSA

Respublikamiz hududi 70 % dan ortiq qismi cho'l va chala cho'l zonasida joylashgan bo'lib, Asosiy Qishloq xo'jalik Sug'oriladigan tarmog'i Dehqonchilikning paxtachilik,g'allachilik,bog'dorchilik, uzumchilik, ko'p miqdorida Suv talab qiladigan qishloq xo'jaligi tarmoqlari hisoblanadi.Shuning uchun ham Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tomchilab sug'orish va yomg'irlatib Sug'orish, Daryo va suv resurslarini oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish barchamizning Insoniylik burchimizdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'HXATI:

1.Rahimbekov R.U.,Donsova Z.N.O'rta Osiyo Tabiatini Geografik joylashuvini o'rganish tarixi.Toshkent."o'qituvchi",1982.

2.Geografiya 7-sinf. "O'qituvchi" Nashriyoti-Matbaa ijodi uyi Toshkent - 2017

3.Papov .V.I., Petrov N.M.o'zbekistonning mineral-xom ashyo resurslari va ularni o'zlashtirish problemalari.Toshkent."fan",1975.

4.Бабушкин .Л. Н..., Когай Н.А. Физических-Географическое районирование Узбекской ССР.Научные труды ТАШГУ.Вып.231.,Тошкент,1964

5.P.BARATOV O'ZBEKISTON Tabiiy geografiyasi"Toshkent o'qituvchi". 1996
INTERNET MANBALARI

5.<http://qalam.uz>.Studiyasi.WEB dizayn va dasturlash.

6.Atlas .7-sinf O'zbekiston respublikasi davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr

Agentligi Toshkent 2022.